



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



### BOSHLANG'ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALSHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISH

**Xolmatova Shahnoza Menglimurodovna**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, Boshlang`ich ta'lism yo`nalishi 4- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada. Bugungi kunda ta'lism tizimida yangilanishlar va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, boshlang`ich ta'lism bosqichida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, bilimlararo bog'liqlikni shakllantirish uchun integratsiyalashgan ta'lism yondashuvi dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lidan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so`zlar:** Integratsiyalashgan ta'lism, boshlang`ich maktab, fanlararo bog'liqlik, kompetensiya, motivatsiya, innovatsion metodlar, loyihibiy yondashuv, faol o'qitish usullari. Kompetensiya, Integratsiya Differensial yondashuv, Bilim, Ta'lism jarayonlari, Pedagogik mahorat, Bilish qobiliyati, O'qitish metodi, Integratsiyalashgan ta'lism tushunchasi va nazariy asoslari

**Kirish:** Integratsiyalashgan ta'lism — bu o'quvchilarga turli fanlar mazmunini bir-biri bilan bog'liq holda, umumiy mavzu yoki kompetensiya asosida o'rgatish jarayonidir. Ushbu yondashuvda bilimlar yakka-yakka emas, balki hayotiy holatlar va fanlararo kontekstda beriladi. Dewey, Piaget va Vygotskiylarning konstruktivistik yondashuvlari integratsiyalashgan ta'larning metodologik poydevorini tashkil qiladi. Boshlang`ich ta'linda integratsiyaning roli boshlang`ich sinflarda o'quvchilar hali abstrakt fikrlash darajasiga to'liq yetmagan bo'ladi. Shu sababli, fanlararo bog'liqlik orqali ularning bilimlarni anglash darajasi oshadi. Masalan, ona tili darsida o'rganilgan hikoya asosida rasm chizish tasviriy san'at, u haqda suhbatlashish nutqiy rivojlanish, voqealarni vaqt ketma-ketligida ifodalash matematika, logika kabilalar birgalikda amalga oshirilsa, ta'lism samaradorligi ortadi. Bu mavzu bo'yicha bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan ona tili bo'yicha qaraydigan bo'lsak K.D.Ushinskij boshlang`ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetaki predmet hisoblangan "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narasa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedgaogikligi ham ana shundadir"-deya ta'kidlab o'tadi. Differentsial yondashuvlarlar ta'lism sohasida muhim tadqiqot yo`nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Vygotskiy L.S.(1978) Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes Vygotskiy asarida ta'lism jaraoyinida talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning "yaqin rivojlanish zonasasi" ga ko'ra o'qitish tamoyillari yoritilgan. Vygotskiy tadqiqotlari





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



differensial ta'lif uchun asos bo'ladi, chunki u har bir o'quvchining rivojlanish darajasini hisobga olish orqali ularning yanada yuqori darajalarga erishsishi muminligini ta'kidlaydi.Ushbu g'oya differensial yondashuvlar qo'llanib talabalarining va o'quvchilarning o'z darajasini ham yaxshilaydi.Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki differensial yonadshuv orqali biz talabalar bilimni yanada chuqurroq va tezda o'rghanish uchun fosita sifatida bilib o'rghanishimiz lozimdir.

**Integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklari:**Bilimlararo bog'liqlik: O'quvchi har bir fanni alohida emas, hayotiy voqeа sifatida anglaydi.Ijodiy fikrlashni rivojlanteridi: O'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalar shakllanadi.

**Motivatsiya oshishi:** O'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish kuchayadi.Ko'nikmalarni mustahkamlash: Bir mavzuni turli fanlarda qayta ishlash orqali mustahkam bilimlar hosil bo'ladi.

**Amaliy misollar va strategiyalar:**Mavzularni uyg'unlashtirish: Masalan, "Tabiat va biz" mavzusi atrofida ona tili, tabiatshunoslik va rasm darslarini uyg'unlashtirish.Loyihaviy faoliyat: O'quvchilar "Yozgi bog' loyihasi" ustida ishlaganda, ular o'Ichov birliklarini o'rGANADILAR (matematika), rasmlar chizadilar (san'at), matn yozadilar (ona tili).

**O'yinga asoslangan integratsiya:** Didaktik o'yinlar orqali bir nechta fan elementlari birlashtiriladi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariO'qituvchilarning malakasi: Hamma o'qituvchilar integratsiya metodikasi bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Hal etish yo'li: doimiy metodik treninglar.Dars jadvalining qat'iyligi: Fanlar qat'iy ajratilgan. Hal etish yo'li: moslashuvchan yondashuv, blok darslar joriy etish.

Baholash tizimi: Integratsiyalashgan faoliyatni baholash murakkab. Hal etish yo'li: kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlari ishlab chiqish.

**Kompetensiya:** -bu inglizcha qobiyat faoliyatda nazariy bilimlardan samrali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni namayon eta oish shaxsning ma'lum bir faoliyatini amalgaq oshirish uchun zarur bo'lgan bilim ko'nikma, malaka, tajriba va qobiliyatlar to`plamidir.Kompetensiya biror bir vazifani yoki faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerakli resulslarning hammasini o'z ichiga oladi.Bu so'z dastlab pedagogika va psixologiya sohalarida qo'llanila boshlagan,ammo hozirgi kunda ko`plab ijtimoiy va professional sohalarda keng tarqalgan tushincha hisoblanadi.

**Differentsial yondashuv:** Bu yondashuv esa talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, har birining o'ziga xos o'rGANISHI ehtiyojlari va usullariga mos ravishda ta'lif beishni anglatadi. Bu yondashuv har bir talabaga maksimal darajada samarali o'rGANISH imkoniyatlarini yaratadi.Differentsial yondashuvning asosiy xususiyatlari;

- ❖ Talabalar o'qish uslublarini va o'rGANISH jarayonini individual tarzda tushinish.
- ❖ Turli darajadagi bilimlarni va qobiliyatlarni hisobga olish.
- ❖ O'rGANISH materiallarini talanalar uchun moslashtirish.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



**Bilim:** -bu o`zlashtirilgan ma'lumotlar,tushinchalar va nazariya bu jarayon amaliy va nazariya ham bir yo`sinda olib boriladi.

**Ko`nikma:** - bu bilimlarni amaliyotda qo'llash qobilyati, ya`ni ishslash yoki ma'lum bir ishni bajarish malakasi bu jarayon hammamizga ma'lumdir asosan bunda o'rgangan har bitta bilimni chuqur o`zlashtirish uchun amaliy jarayondir.

**Malaka:** -bu bilim va ko`nikmalarni muntazam ravishda va samarali tarzda qo'llash.

**Qobilyat:** - bu muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsning tabiiy imkoniyatlari.

**Pedagogik mahorat:** Pedagogik mahorat tushinchesi o'tkan asrning 80-90 yillarida imiy-pedagogik jihatdan asolanib OTMdA mustaqil fan sifatida o'qitila boshladi.Bunda mahotarli pedagog mohirlik, ustalik, epchillik bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz,o`ta moxirlik bilanbajarishdir.Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy metodik, ruxiy va subektiv jihatdan o`ta mohirlik ustalik bilan tashkil etish biron bir mavzuni qay usulda bo`lsa ham o`quvchi ongiga ta'sir eta olishdir.

**Xulosa:** Xulosa sifatida bir qancha jarayonlarni misol sifatida ko`rib o'tishimiz zarurdir.Biz differentsial yondashuv asosida an'anaviy yondashuvda tayyor bilimlarni uzatib berish modelida yiroqlashimiz va differentsial yondashuv asosida darslarni mazmunli va eng asosiysi tushinarli bo`lishiga diqqatimizni qaratishimiz lozimdir.Biz shiddat bilan o`zgaruvchi hozirgi texnologiyalar asrida an'anaviy yondashuvni qo'llay olmaymiz bu orqali natijalarga erisha olmaymiz.Ona tili ta'limiga bog`lashimiz juda muhim hisiblanadi. Biz uchun kerak bo`ladigan asosiy fanlar ichida ona tili birinchi o'rinni egallaydi desak maqsadga muvofiq bo`ladi. Integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini jonlantiradi, bolalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. O'qituvchilarning ushbu yondashuvga tayyorligi, mos dars rejalarini va baholash tizimi yaratilsa, integratsiyalashgan ta'lim o'z samarasini beradi. Tavsiya sifatida, metodik qo'llanmalar yaratish, tajriba darslarini o'tkazish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish taklif etiladi.Har bitta bolaning savodi shu fan orqali chiqar ekan biz talabalar o`zimiz o'rgangan yondashuvlarni amaliyot jarayonida o`quvchilarda sinab ko`rish natijasida o`quvchilarga yangiik o`rgatgan bo`lsa biz yaqna bitta metodikani ichiga kirib borgan bo`lamiz bu yondashuv esa o`z navbatida komptensiya bilan birgalikda differentsial yondashuvni o'rgangan bo`lamiz.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Muxiddinov A." O`quv jaroyinida nutq faoliyati" –T o`qituvchi,1995
2. Saidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya" -T..OPI,2003
3. Sultonova G.A.Pedagogik mahoarat –T..Nizomiy nomidagi TDPU,2005
4. Ushiniskiy K.D Tanlangan pedagogic asarlar –Toshkent "O'zdavnashr", 1959- 49-bet
5. Karima Qosimova Toshkent-“NOSIR” nashiryoti 2017
6. Ilovalar

